



Immigratsiya sudi 101

Uzbek (Latin) | O'zbekcha

Immigratsiya sudida siz immigratsiya sudyasi huzurida o'z ishingizni himoya qilish va nima uchun Amerika Qo'shma Shtatlarida qolishingiz kerakligini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Agar immigratsiya sudida yutqazsangiz, apellyatsiya berishingiz mumkin.

Quyidagi hollarda deportatsiya qilinishingiz mumkin:

- immigratsiya sudida yutqazib, apellyatsiya bermasangiz,
- apellyatsiya berib, baribir yutqazsangiz.

Immigratsiya sudida kimlar qatnashadi?



- Qo'shma Shtatlarda qolishingizga ruxsat berilishi yoki berilmasligini aniqlaydigan **Immigratsiya sudyasi** bo'ladi.
- Shuningdek, hukumat nomidan ish yuritadigan **advokat** ham ishtirok etadi. Ularning vazifasi Amerika Qo'shma Shtatlari hukumatiga vakillik qilishdir. Ular siz uchun ishlashmaydi.
- **Agar advokatingiz bo'lsa**, ularga doimo siz bilan birga sud zalida qatnashishga, sizga qo'ng'iroq qilishga va ko'rgani kelishga ruxsat beriladi.

Unutmang: Hukumat sizni advokat bilan taminlamaydi, ammo siz sudda o'zingizni himoya qilish uchun yollashingiz mumkin.

Immigratsiya sudi sanasini tekshirish

- Sud sanangizni tekshirish uchun A-raqamingiz (A-number) kerak bo'ladi (Masalan: A 000-000-000). Bu raqam hukumat tomonidan beriladi va immigratsiya hujjatlarida ko'rsatiladi.
- Avtomatlashtirilgan ish malumotlari tizimidan (Automated Case Information system) foydalanib, eshituvingiz bo'yicha malumotlarni tekshiring. Quyida ikkita usul keltirilgan:
 - 1-800-898-7180 raqamli ishonch telefoniga qo'ng'iroq qiling. A-raqamingizni kiriting va operatorning ko'rsatmalariga rioya qiling.
 - Veb-sahifaga kirish: <https://acis.eoir.justice.gov/en/>. Qidiruv maydoniga A-raqamingizni kiritib, "Enter" (Kirish) tugmasini bosing.

Ushbu varaqada faqat umumiy malumotlar keltirilgan. Bu huquqiy maslahat emas. Huquqiy maslahat olish uchun advokatga murojaat qiling.



Immigratsiya sudi 101

Uzbek (Latin) | O'zbekcha

Shaxsan ishtirok etadigan eshituvni virtual/telefon orqali o'tkaziladigan eshituvga o'zgartirish

Shaxsan qatnashib o'tkaziladigan immigratsiya sudi eshituvini onlayn yoki telefon orqali o'tkazish formatiga o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, sudga rasmiy ravishda ariza topshirishingiz lozim. So'rovni keyingi rejalashtirilgan eshituv sanasidan iloji boricha ertaroq topshirish muhim ahamiyatga ega. Bunda, **advokat bilan maslahatlashishni** unutmang.



- Huquqiy maslahat zarur hujjatlarni to'g'ri tayyorlash va rasmiylashtirish jarayonida yordam bera oladigan advokatsdan olinishi lozim.
- Sudga eshituv formatini o'zgartirish to'g'risidagi arizani (Motion to Change Hearing Format) topshirishingiz zarur bo'ladi. Immigratsiya sudyasi arizani ko'rib chiqadi va qaror haqida sizni yoki vakil qilib tayinlangan advokatingizni xabardor etadi.
- Agar taklif qabul qilinsa, eshituv onlayn o'tkaziladi; rad etilsa, eshituv yuzma-yuz shaklda bo'lib o'tadi.

Huquqiy vakil topish

So'nggi oylarda immigratsiya sudlari ichida immigratsiya nazorati bo'yicha faoliyat olib borilayotgani haqida xabarlar tarqaldi. Siz hibsga olinish holati yuz bersa, oldindan tayyorlangan rejaga ega bo'lishni xohlashingiz mumkin. Savollaringiz bo'lsa, advokatga murojaat qiling.

Immigratsiya bo'yicha bepul va maxfiy yuridik yordam olish uchun Immigratsiya ishlari bo'yicha shahar hokimligi boshqarmasining (Mayor's Office of Immigrant Affairs, MOIA) Immigratsiya huquqiy yordam ishonch telefoni raqamiga qo'ng'iroq qiling:



1-800-354-0365

Dushanbadan jumagacha, soat 9:00 dan 18:00 gacha

[Tarjima xizmati mavjud](#)

Har bir immigratsiya sudi o'z hududida bepul yoki arzon narxdagi immigratsiya huquqiy xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlar ro'yxatiga ega.

Sudingiz yaqinidagi bepul immigratsiya huquqiy tashkilotlari ro'yxatini oldindan bilish uchun QR kodni skanerlang yoki quyidagi veb-saytga tashrif buyuring:
www.justice.gov/eoir/list-pro-bono-legal-service-providers

